

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail:
sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Bahodirov Saidaxmad Ulug'bekovich

Sana: 28-10-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

220528 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani "Abdulla Qaxxor" ko'chasi 44-uy manzilda joylashgan "YAKKASAROY EMPIRES BUILDING" MCHJga tegishli mavjud yuridik hujjatga ega binosini "Yerto'la qismida avtoturargox bo'lgan biznes markaz, mehmonxona va ko'p qavatli turar joy" binolariga ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish	
Buyurtmachi:	YAKKASAROY EMPIRES BUILDINGS MCHJ
Bosh loyihachi:	"ZAEIM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	031122

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining 2020-yil 6-noyabrdagi №239866134/1-sonli ruxsatnomasi.
- 1.2. Toshkent shahar Yakkasaroy tumani Davlat xizmatlari markazining "YAKKASAROY EMPIRES BUILDING" MCHJga tegishli 2020-yil 26-noyabrdagi №24828409-sonli elektron arizasi.
- 1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2021-yil 26-yanvardagi 1726-1726287-10223-sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.
- 1.4. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi huzuridagi Arxitektura shaharsozlik kengashining 2023-yil 11-avgustdagi №03-35-sonli yig'ilish bayonnomasi.
- 1.5. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-yil 23-avgustdagi №79160-sonli xulosasi.

- 1.6. Buyurtmachi “YAKKASAROY EMPIRES BUILDING” MCHJ va loyihachi “ZAEIM” MCHJ o’rtasida tuzilgan 2021-yil 7-iyuldagi №80/21-sonli shartnomasi.
- 1.7. Buyurtmachi “YAKKASAROY EMPIRES BUILDING” MCHJ va loyihachi “ZAEIM” MCHJ belgilangan tartibda 2021-yil 7-iyulda tasdiqlangan loyiha topshirig’i.
- 1.8. Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 2024-yil 27-avgustdagi №01-02/14-1722-sonli Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Toshkent shahar Yakkasaroy tumani “Abdulla Qaxxor” ko’chasi 44-uy manzilda joylashgan “YAKKASAROY EMPIRES BUILDING” MCHJga tegishli mavjud yuridik hujjatga ega binosini “Yerto’la qismida avtoturargox bo’lgan biznes markaz, mehmonxona va ko’p qavatli turar joy” binolariga ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish obyektining loyiha-smeta va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Obyekt joylashgan hudud tavsifi.

Obyektning bosh rejasi amaldagi SHNQ 2.07.01, SHNQ 2.01.02, SNIIP II-89 normativ hujjatlariga mos ravishda ishlab chikilgan. Bino joylashuvi loyixalash topshirig’i, muxandislik tarmoklarining ulanishi va shamol esishini hisobga olgan xolda amalga oshirilgan.

Loyixada ob’ektning ishlatilish vazifasiga ko’ra mos qurilish maydonchalari, yulaklar va kirish yulaklari ko’zda tutilgan. Bir vaktning o’zida yong’in o’chirish mashinalari uchun o’tish yo’lagi vazifasini ham bajaruvchi qoplamalar loyihalangan. O’tish yo’laklari Vr tur (setka) bilan beton styajka qilingan, qoplamalar 15 sm qalinlikdagi shag’al asosga sovukga chidamli plitkalar bilan qoplangan. Hududdan suv ochiq va yopiq irrigatsiya tarmoklariga tekisliklar orqali olib chikib ketiladi. Irrigatsiya tarmoqlari o’tish yo’laklari, yo’lkalar bilan kesishganda Ø150 mm va Ø200 mm li polietilen trubalar ishlatilgan ko’prikchalar o’rantiadi.

Loyixada daraxt ko’chatlarining maxalliy navlarini tanlash va qisman sharqiy tuyyava butalar, drok va jimolost, shuningdek atirgul kabi ko’p yillik gullardan o’tkazish tafsia etiladi. Bunda yer osti muxandislik kommunikatsiyalari trassalari va yong’in o’chirish mashinalarining kirib kelishi imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

Me’yoriy qor tushish bosimi - $S_o=0,50 \text{ KPa}$ (50 kgs/m^2) (QMQ 2.01.07-96)

Me’yoriy shamol tezligi bosimi - $W_o=0,38<0,45 \text{ KPa}$ ($38<45 \text{ kgs/m}^2$) (QMQ 2.01.07-96)

Qurilish klimat zonasi - II.

Hududning zilzilaviyligi - 8 ball.

Binoning zilzilaviy bardoshlilik - 9 ball.

Tuproqning muzlash sathi - $(-0.30<-0.70)$

Tuproqning zilzilaviylik toifasi - III.

Qishgi tashqi havo harorati hisobi - $T_H=-19^\circ\text{C}$

O’rtacha yillik harorat - $(+18^\circ\text{C})$

Eng baland yozgi harorat - $(+37^\circ\text{C}<+40^\circ\text{C})$

Eng past qishgi sovuq harorat - $(-14^\circ\text{C}<-20^\circ\text{C})$

Binoning yong’inga chidamlilik darajasi - II. (ikkinchi)

Binoning javobgarlik sinfi (tuzilishi) - II. (ikkinchi)

Binoning konstruktiv yong’in xavfi sinfi - CO

Binoning funksionallik yong’in xavfi sinfi (tuzilishi) - F1, F3.

Binoning chidamlilik darajasi - II. (ikkinchi)

3.2. Bosh reja texnik iqtisodiy ko’rsatgichi. (ГП-ТЭП)	m^2	%
1. Hudud maydoni	6207.0	100

2. Qurilish maydoni	2955.2	47
3. Yo'l va yo'laklar maydoni.	2535.0	41
4. Ko'kalamzorlashtirish maydoni	716.8	12

3.3. Bosh reja qaydnomasi. (ГП)

1. Loyihadagi turar-joy binosi. Blok-A-B.

2. Loyihadagi turar-joy binosi. Blok-B.

3. Biznes markaz. Blok-Г seksiyasi.

4. Favvora (фонтан).

5. Bolalar maydonchasi.

6. Mini futbol maydonchasi.

3.4. Bosh reja kichik arxitektura yechimlari. (ГП-МАФ)

1. O'rtacha qoya. 1-dona.

2. Gorizontal arg'umchoq. 2-dona.

3. Vertikal arg'umchoq. 1-dona.

4. Osma ko'prik. 1-dona.

5. O'rindiқ urnasi bilan. 2-dona.

6. Shved devorchasi. 2-dona.

3.5. Arxitektura rejalashtirish yechimi. (Turar-joy binosi. Blok-A-B. AP)

Loyihadagi turar-joy va ofis binosi Toshkent shahar Yakkasaroy tumani "Abdulla Qaxxor" ko'chasi 44-uy manzilda joylashgan "YAKKASAROY EMPIRES BUILDING" MCHJga tegishli hududi ichida joylashgan. Obyekt hudud joylashuviga qarab funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda arxitekturaviy-rejalashtirish yechimi qabul qilingan, shuningdek iqlim va mahalliy sharoitlar hisobga olingan. Bino 7-qavat to'liq va mansard terassa qavatli bilan bino 8-qavat qilib loyihalangan. 8-qavatli turar-joy binosi o'q chiziqlari bo'yicha (A-JK) 20,10 metrni va (1-12) o'q chiziqlari bo'yicha 58,00 metr o'lchamlari bilan to'rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland parapet qismigacha $h=+30,10$ metrni tashkil etadi. Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha $h=+3,30$ metrni tashkil etadi. Tomi qiya $i=11^\circ$ % chordoqli tom qilib yopilgan. Sokol qavatli balandligi $h=3,90$ tashkil etadi (-4.200 sath). Sokol sathi $h=+0,00$ metrda boshlanadi. Binoning atrofi tasma beton yo'lak (отмостка) bilan qoplangan.

3.6. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar. (Turar-joy binosi. Blok-A-B. AP-TЭП)

1. Qurilish maydoni	- 1071,00 m ²
2. Umumiy yashash maydoni	- 8388,86 m ²
3. Qurilish hajmi	- 33 522,00 m ³

3.7. Tashqi va ichki pardozlash ishlari. (Turar-joy binosi. Blok-A-B. AP)

Tashqi devorlari - Qalinligi 380-250mm.li M75belgili g'ishtdan bilan devorlar to'ldirilgan. (issiqlik himoya qatlami bilan o'ralgan).

Tashqi issiqlik himoya qoplamasi - Hajmiy og'irligi ППЖ-Х=120÷140kg/m³ ГОСТ 9573-2012 $\delta=80\div90$ mm.dan kam bo'lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi bezak - Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustidan qoplanadi. Dekorativ yog'och panellar. Suvga chidamli emulsiya dekorativ suvog'i.

Sokol - Suvoq qilinib, silliqlangan italogranit bezagi bilan qoplanadi.

Krilso - Bruschatka sovuqqa chidamli turidan granit va italogranit.

Otmostka - Bino perimetri beton qoplamasi quyiladi. eniga 1500mm, beton sinfi B7.5 belgili qalinligi 50mm. bo'lgan shag'al asos 100mm.

Karniz – Dekorativ Alyubond turidagi panel bilan qoplanadi.

Kozirek – Dahliz soyabonlari Alyupan paneli turidagi qoplamadan.

Otkoslar – Qum-sement suvoq ustidan, dekorativ bezak travertin qilinadi.

Dekorativ elementlar – Penopolistirool turidagi tyaga tekis shaklda.

Tom qoplamasi – Profil yuzali metal qoplama. Yuqori qavati terassadan iborat.

Tom yopmasi – Temir beton plita (Blok-A-B.) yog'och konstruksiya ustidan falgaizol to'shaladi.

Tom issiqlik qoplamasi – Mineral tolali bazalt, zichligi $\gamma=100\text{kg/m}^3$ qalinligi $\delta=150\text{mm}$. bo'lgan qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi tokchalar – Po'lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm.

Ichki devorlar – Qalinligi 120-380mm. g'isht bilan devorlar to'ldirilgan. Qum-sement suvoq qilinib, shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo'yaladi.

Yuvinish xonalari – Devorlar kafellari glazurli plitkalar bilan $h=1.80$ balandlikda qoplanadi.

Pollar – Mozayka beton, keramik plitka dag'al yuzali, granit, keramogranit, laminat qoplanadi.

Shiftlar – Choklari yopilib, yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli emulsiya bo'yoq bilan yorqin ranglar bilan bo'yaladi. Gipsokartondan qoplanib shpaklyovkada tekkislanadi, yuzalari yorqin rangda suv asosli bo'yoq bilan bo'yaladi. Osmo plastik qoplanadi.

Eshiklar – Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi. Ichki eshiklar, MDFdan yasaladi. Alyumin eshiklar sanitar xonalarga o'rnatiladi.

Derazalar – Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.

Darcha derazalar – (Framuga) Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi

Tokchalar – PVX plastik.

Plintuslar – PVX plastik, marmar, keramik.

Vitraj – Toblangan shaffof shishali. Xromlangan va zanlamas metaldan dastalar qo'yiladi. GP oynasi mahsus tutqichlar bilan mahkamlanadigan profillaga qotiriladi.

Darvoza – Metal avtomatik mahsus qurilmali darvoza.

3.8. Arxitektura rejalashtirish yechimi. (Turar-joy binosi. Blok-B. AP)

Loyihadagi turar-joy va ofis binosi Toshkent shahar Yakkasaroy tumani "Abdulla Qaxxor" ko'chasi 44-uy manzilda joylashgan "YAKKASAROY EMPIRES BUILDING" MCHJga tegishli hududi ichida joylashgan. Obyekt hudud joylashuviga qarab funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda arxitekturaviy-rejalashtirish yechimi qabul qilingan, shuningdek iqlim va mahalliy sharoitlar hisobga olingan. Bino 7-qavat to'liq va mansard terassa qavati bilan bino 8-qavat va texnik yerto'la qavat qilib loyihalangan. 7-qavatli turar-joy binosi o'q chiziqlari bo'yicha (A-I) 18,00 metrni va (1-8) o'q chiziqlari bo'yicha 43,80 metr o'lchamlari bilan to'rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland parapet qismigacha $h=+42,00$ metrni tashkil etadi. Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha $h=+3,60$ metrni tashkil etadi. Tomi yassi tom qilib yopilgan. Sokol qavati balandligi $h=3,30$ tashkil etadi (-3.600 sath). 1-qavat sathi $h=+0,00$ metrda boshlanadi, balandligi $h=4.80$ metrni tashkil etadi. Binoning atrofi tasma beton yo'lak (отмостка) bilan qoplangan.

3.9. Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlar. (Turar-joy binosi. Blok-B. AP-ТЭП)

- | | |
|---------------------------|----------------------------|
| 1. Qurilish maydoni | - 1071,00 m ² |
| 2. Umumiy yashash maydoni | - 8388,86 m ² |
| 3. Qurilish hajmi | - 33 522,00 m ³ |

3.10. Tashqi va ichki pardozlash ishlari. (Turar-joy binosi. Blok-B. AP)

Tashqi devorlari - Qalinligi 380-250mm.li M75belgili g'ishtdan bilan devorlar to'ldirilgan. (issiqlik himoya qatlami bilan o'ralgan).

Tashqi issiqlik himoya qoplamasi - Hajmiy og'irligi $\Pi\Pi\text{Ж-}\gamma=120\div140\text{kg/m}^3$ ГОСТ 9573-2012 $\delta=80\div90\text{mm}$.dan kam bo'lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi bezak - Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustidan qoplanadi. Dekorativ yog'och panellar. Suvga chidamli emulsiya dekorativ suvog'i.

Sokol - Suvoq qilinib, silliqlangan italogranit bezagi bilan qoplanadi.

Krilso - Bruschatka sovuqqa chidamli turidan granit va italogranit.

Otmotka - Bino perimetri beton qoplamasi quyiladi. eniga 1500mm, beton sinfi B7.5 belgili qalinligi 50mm. bo'lgan shag'al asos 100mm.

Karniz - Dekorativ Alyubond turidagi panel bilan qoplanadi.

Kozirek - Dahliz soyabonlari Alyupan paneli turidagi qoplamadan.

Otkoslar - Qum-sement suvoq ustidan, dekorativ bezak travertin qilinadi.

Dekorativ elementlar - Penopolistirool turidagi tyaga tekis shaklda.

Tom qoplamasi - Profil yuzali metal qoplama. Yuqori qavati terassadan iborat.

Tom yopmasi - Temir beton plita (Blok-B.) yog'och konstruksiya ustidan falgaizol to'shaladi.

Tom issiqlik qoplamasi - Mineral tolali bazalt, zichligi $\gamma=100\text{kg/m}^3$ qalinligi $\delta=150\div200\text{mm}$.gacha bo'lgan qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi tokchalar - Po'lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm.

Ichki devorlar - Qalinligi 120-380mm. g'isht bilan devorlar to'ldirilgan. Qum-sement suvoq qilinib, shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo'yaladi.

Yuvinish xonalari - Devorlar kafellari glazurli plitkalar bilan $h=1.80$ balandlikda qoplanadi.

Pollar - Mozayka beton, keramik plitka dag'al yuzali, granit, keramogranit, laminat qoplanadi.

Shiftlar - Choklari yopilib, yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli emulsiya bo'yoq bilan yorqin ranglar bilan bo'yaladi. Gipsokartondan qoplanib shpaklyovkada tekkislanadi, yuzalari yorqin rangda suv asosli bo'yoq bilan bo'yaladi. Osmo plastik qoplanadi.

Eshiklar - Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi. Ichki eshiklar, MDFdan yasaladi. Alyumin eshiklar sanitar xonalarga o'rnatiladi.

Derazalar - Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.

Darcha derazalar - (Framuga) Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi

Tokchalar - PVX plastik.

Plintuslar - PVX plastik, marmar, keramik.

Vitraj - Toblangan shaffof shishali. Xromlangan va zanlamas metaldan dastalar qo'yiladi. GP oynasi mahsus tutqichlar bilan mahkamlanadigan profillaga qotiriladi.

Darvoza - Metal avtomatik mahsus qurilmali darvoza.

3.11. Arxitektura rejalashtirish yechimi. (Biznes markaz. Blok-Г AP)

Loyihadagi turar-joy va ofis binosi Toshkent shahar Yakkasaroy tumani "Abdulla Qaxxor" ko'chasi 44-uy manzilda joylashgan "YAKKASAROY EMPIRES BUILDING" MCHJga tegishli hududi ichida joylashgan. Obyekt hudud joylashuviga qarab funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda arxitekturaviy-rejalashtirish yechimi qabul qilingan, shuningdek iqlim va

mahalliy sharoitlar hisobga olingan. Bino 9-qavat to'liq va terassa qavati bilan bino 10-qavat va texnik qavat qilib loyihalangan. 10-qavatli turar-joy binosi o'q chiziqlari bo'yicha (A-Γ) 18,00 metrni va (1-8) o'q chiziqlari bo'yicha 43,80 metr o'lchamlari bilan to'rtburchak shaklda loyihalangan. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland parapet qismigacha $h=+42,00$ metrni tashkil etadi. Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha $h=+3,60$ metrni tashkil etadi. Tomi yassi tom qilib yopilgan. Sokol qavati balandligi $h=3,30$ tashkil etadi (-3.600 sath). 1-qavat sathi $h=+0,00$ metrda boshlanadi, balandligi $h=4.80$ metrni tashkil etadi. Binoning atrofi tasma beton yo'lak (отмостка) bilan qoplangan.

3.12. Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlar. (Biznes markaz. Blok-Γ AP)

1. Qurilish maydoni	- 813,20 m ²
2. Umumiy yashash maydoni	- 6540,54 m ²
3. Qurilish hajmi	- 28 600,00 m ³

3.13. Tashqi va ichki pardozlash ishlari. (Biznes markaz. Blok-Γ AP)

Tashqi devorlari - Qalinligi 380-250mm.li M75belgili g'ishtdan bilan devorlar to'ldirilgan. (issiqlik himoya qatlami bilan o'ralgan).

Tashqi issiqlik himoya qoplamasi - Hajmiy og'irligi ППЖ- $\gamma=120\div140\text{kg/m}^3$ ГОСТ 9573-2012 $\delta=80\div90\text{mm}$.dan kam bo'lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi bezak - Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustidan qoplanadi. Dekorativ yog'och panellar. Suvga chidamli emulsiya dekorativ suvog'i.

Sokol - Suvoq qilinib, silliqlangan italogranit bezagi bilan qoplanadi.

Krilso - Bruschatka sovuqga chidamli turidan granit va italogranit.

Otmostka - Bino perimetri beton qoplamasi quyiladi. eniga 1500mm, beton sinfi B7.5 belgili qalinligi 50mm. bo'lgan shag'al asos 100mm.

Karniz - Dekorativ Alyubond turidagi panel bilan qoplanadi.

Kozirek - Dahliz soyabonlari Alyupan paneli turidagi qoplamadan.

Otkoslar - Qum-sement suvoq ustidan, dekorativ bezak travertin qilinadi.

Dekorativ elementlar - Penopolistirool turidagi tyaga tekis shaklda.

Tom qoplamasi - Profil yuzali metal qoplama. Yuqori qavati terassadan iborat.

Tom yopmasi - Temir beton plita (Blok-Γ) yog'och konstruksiya ustidan falgaizol to'shaladi.

Tom issiqlik qoplamasi - Mineral tolali bazalt, zichligi $\gamma=100\text{kg/m}^3$ qalinligi $\delta=150\div200\text{mm}$.gacha bo'lgan qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi tokchalar - Po'lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm eniga 200mm.

Ichki devorlar - Qalinligi 120-380mm. g'isht bilan devorlar to'ldirilgan. Qum-sement suvoq qilinib, shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo'yaladi.

Yuvinish xonalari - Devorlar kafellari glazurli plitkalar bilan $h=1.80$ balandlikda qoplanadi.

Pollar - Mozayka beton, keramik plitka dag'al yuzali, granit, keramogranit, laminat qoplanadi.

Shiftlar - Choklari yopilib, yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli emulsiya bo'yoq bilan yorqin ranglar bilan bo'yaladi. Gipsokartondan qoplanib shpaklyovkada tekkislanadi, yuzalari yorqin rangda suv asosli bo'yoq bilan bo'yaladi. Osmo plastik qoplanadi.

Eshiklar - Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi. Ichki eshiklar, MDFdan yasaladi. Alyumin eshiklar sanitar xonalarga o'rnatiladi.

Derazalar - Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.

Darcha derazalar – (Framuga) Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi

Tokchalar – PVX plastik.

Plintuslar – PVX plastik, marmar, keramik.

Vitraj – Toblangan shaffof shishali. Xromlangan va zanlamas metaldan dastalar qo'yiladi. GP oynasi mahsus tutqichlar bilan mahkamlanadigan profillaga qotiriladi.

Darvoza – Metal avtomatik mahsus qurilmali darvoza.

3.14. Turar-joy binolari qurilishi (konstruktiv yechimlari bo'yicha).

Binoning o'qlar bo'yicha o'lchamlari – 58.0x19.5m, to'g'ri to'rtburchak shaklida;

Bino qavatlilikligi 7 qavat, yerto'lali va mansardli;

Qavatlar balandligi – yerto'lasi – poldan shiftgacha – 3.9m, 1 - 7qavatlar – poldan shiftgacha – 3.3m, mansard qavati – poldan shiftgacha – 3.4m;

Binoga kirish bo'limlari – 2 bo'limdan iborat;

Bino yerto'lasidan avtoturargoh sifatida foydalaniladi. Yuqori qavatlari turar-joy komplekslariga moslashtirilgan;

Bino poydevorlarini qurish uchun dastlab, yerni tekislash hamda qazish ishlari amalga oshiriladi;

Poydevorosti to'shamalar – 1) qalinligi 100mm li sheben to'shama, 2) qalinligi 70mm li B7.5 sinfli beton to'shamasi, 3) 2 qatlamli o'ramali gidroizolyatsiya to'shamlari yotqiziladi;

Poydevorlari – B25 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitadan iborat. Qalinligi 700mm;

Sokol (yerto'la) devorlari – B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 400mm;

Bino poydevorlarining tashqi yuzalarini namdan himoyalash maqsadida bitum eritmali bo'yoq ishlari amalga oshiriladi hamda tayanch devorchasi sifatida pishgan g'isht terimi amalga oshiriladi;

Devorlari – bino devorlari M75 markali pishiq g'ishtdan, M50 markali sement qorishma qo'shilgan holda, II toifa usulida teriladi. Devorlarni kuchaytirish har 525mm oraliqda gorizonta SG-1 to'rsimon panjara elementlarini o'rnatish yordamida amalga oshiriladi;

Pardevorlari – bino pardevorlari qalinligi 200mm li armaturalangan gazobeton bloklaridan iborat;

Ustun (kolonna) elementlari - B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 400x400mm;

To'sin (rigel) elementlari - B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat;

Orayopma va tomyopmalari – ko'p aylana bo'shliqli yig'ma temirbeton plitalardan iborat (seriya – YTP 46.1-95 b. 7.);

Zina konstruksiyasi – B20 sinfli quyma temirbeton marsh va maydonlardan iborat kompleks konstruksiyadan iborat;

Lift shaxtasi – B20 sinfli quyma temirbeton devorlardan tashkil topgan, devor qalinligi 200mm;

Diafragma – quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 250mm;

Tom qoplamasi – metall konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplamalari qoplanadi;

Otmotka – bino perimetri bo'ylab, beton to'shamasi yotqiziladi;

Barcha metall konstruksiya elementlarining sirt yuzalari moyli bo'yoq elementlari bilan 2 marotaba bo'yaladi.

Biznes markaz binosi qurilishi (konstruktiv yechimlari bo'yicha).

Binoning o'qlar bo'yicha o'lchamlari – 43.8x18.0m, to'g'ri to'rtburchak shaklida;

Bino qavatlilikligi 9 qavat, yerto'lali va mansardli;

Qavatlar balandligi – yerto'lası – poldan shiftgacha – 3.3m, 1-qavat – poldan shiftgacha – 4.8m, 2 - 9 qavatlari – poldan shiftgacha – 3.6m;

Bino yerto'lasidan avtoturargoh sifatida foydalaniladi. Yuqori qavatlari maishiy xizmat ko'rsatishga moslashtirilgan;

Bino poydevorlarini qurish uchun dastlab, yerni tekislash hamda qazish ishlari amalga oshiriladi;

Poydevorosti to'shamalar – 1) qalinligi 100mm li sheben to'shama, 2) qalinligi 70mm li B7.5 sinfli beton to'shamasi, 3) 2 qatlamli o'ramali gidroizolyatsiya to'shamlari yotqiziladi;

Poydevorlari – B25 sinfli yaxlit quyma temirbeton plitadan iborat. Qalinligi 900mm;

Sokol (yerto'la) devorlari – B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 400mm;

Bino poydevorlarining tashqi yuzalarini namdan himoyalash maqsadida bitum eritmali bo'yoq ishlari amalga oshiriladi hamda tayanch devorchasi sifatida pishgan g'isht terimi amalga oshiriladi;

Devorlari – bino devorlari M75 markali pishiq g'ishtdan, M50 markali sement qorishma qo'shilgan holda, II toifa usulida teriladi. Devorlarni kuchaytirish har 525mm oraliqda gorizonta SG-1 to'rsimon panjara elementlarini o'rnatish yordamida amalga oshiriladi;

Pardevorlari – bino pardevorlari qalinligi 200mm li armaturalangan gazobeton bloklaridan iborat;

Ustun (kolonna) elementlari - B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 400x400mm; 400x600mm;

To'sin (rigel) elementlari - B25 sinfli quyma temirbeton devorlardan iborat;

Orayopma va tomyopmalari – ko'p aylana bo'shliqli yig'ma temirbeton plitalardan iborat (seriya – YTP 46.1-95 B. 7.);

Zina konstruksiyasi – B20 sinfli quyma temirbeton marsh va maydonlardan iborat kompleks konstruksiyadan iborat;

Lift shaxtasi – B20 sinfli quyma temirbeton devorlardan tashkil topgan, devor qalinligi 200mm;

Diafragma – quyma temirbeton devorlardan iborat, kesim qalinligi 300mm;

Tom qoplamasi – metall konstruksiya elementlari ustidan profnastil qoplamalari qoplanadi;

Otmostka – bino perimetri bo'ylab, beton to'shamasi yotqiziladi;

Barcha metall konstruksiya elementlarining sirt yuzalari moyli bo'yoq elementlari bilan 2 marotaba bo'yaladi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Energiya samaradorligi va enrgiya tejamkorligi.

PVX derazalar, standart 1 kamerali profil, ikki tomonlama energiya tejaydigan oynali.

Barcha derazalar shamollatish uchun murakkab ochilish qurilmalariga ega.

Tashqi devorlari – Qalinligi 380-250mm.li M75 belgili g'isht devorlar bilan to'ldirilgan. Hajmiy og'irligi $\Pi\Pi\text{Ж-X}=120\div140\text{kg/m}^3$ ГОСТ 9573-2012 - $\delta=80\div90\text{mm}$.dan kam bo'lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tom qoplamasi himoya materiali – (Bloklar va biznes markaz) Metal yuzali otsinkovka qoplama. Metal konstruksiya ustidan polimer qoplamasi qoplanadi.

Tom issiqlik qoplamasi – Mineral tolali $\text{X}=100\text{kg/m}^3$ qalinligi $\delta=150\div200\text{mm}$.dan kam bo'lmagan bazalt bilan qoplanadi.

Eshik romlarini-issiqlik saqllovchi va zamonaviy eshik romlarini o'rnatilgan, binoning kirish eshiklariga o'zi yopiluvchi mexanizmlar o'rnatilgan.

Tashqi eshiklardan kirish joylariga tamburlar yechimi qilingan.

Elektr ta'minotida - Binoda energiya sarfini qisqartirish va zahira bo'yicha, muqobil energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish uchun binoning tom qismiga quyosh fotoelektrik modul mono kristalli quyosh panellari o'rnatilgan.

Binoni qo'shimcha issiq suv bilan ta'minlash uchun quyosh panelli suv isitgichlari o'rnatilgan. Binoni ichki xonalari va yo'laklarini yoritish tizimida energiya tejankor LED (turidagi) belgili yoritgich panellar qo'llanilgan.

4.2. Isitish va shamollatish tizimi.

Ko'p qavatli turar joy binosi.

Isitish tizimi d-20 mm va d-25 mm polipropelin quvurlardan tashkil topgan. Quvurlar yakuniy muhirlash bosqichida gidravlik bosim tekshiruvdan o'tqaziladi. Issiqlik jixozi sifatida radiatorlari qabul qilingan. Issiqlik ta'minoti bilan ta'minlashda Q-24 Kvt ikki pallali ishitish qozonlaridan foydalanilgan. Shamollatish tizimi tabiiy va mexanik usulda amalga oshirish nazarda tutilgan.

Biznes markaz va mexmonxona.

Isitish tizimi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Quvurlar PN-25 tipidagi polipropelin quvurlardan foydalanilgan. Issiqlik jixozi sifatida radiatorlar qabul qilingan. Fankoil birliklar issiqlik yo'qotilishi va uskunadan ortiqcha issiqlikni qoplash va yozda ortiqcha issiqlikni olib tashlash uchun mo'ljallangan. Quvurlar qiyaligi $i = 0.002$ da yotqiziladi. Shamollatish tizimi tabiiy va mexanik impulsar bilan ta'minlash va chiqarishni ta'minlaydi. Havo oqimining markaziy kondinsionerlar yordamida amalga oshiriladi va chordoqda o'rnatilgan. Fanatlarning dinamik shovqinni kamaytirish uchun ventilyator o'rnatish va boshqa ishlar ko'zda tutilgan bo'lib ishlar ketma-ketligi bo'yicha amalga oshirish loyihalashtirilgan.

4.3. Xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlari:

Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01-04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i (КСПБ 2x0,5) ochiq simli va ПБХ kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Прибор приёмно- контрольный и управления охрана-пожарный "Гранд магистр-30" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalga oshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

4.4. Loyiha me'yori va qoidalarga muvofiq, loyiha topshirig'i asosida ishlab chiqilgan.

Elektr ta'minotining ishonchlilik darajasiga ko'ra, binoning tok kollektorlari II toifali iste'molchilarga tegishli.

Liftlar va favqulodda yoritish uchun elektr qabul qiluvchilar - I toifa. Tarmoq kuchlanishi 380/220.

ShchRV tipidagi kommutatorlar yoritish va quvvat yuklari uchun tarqatish platalari sifatida ishlatiladi.

Tarqatish tarmoqlari yotqizilgan quvurlarda gipsli qatlam ostida yashiringan VVG kabeli yordamida amalga oshiriladi.

Yoritgichlar turlarini tanlash ularning dizayn xususiyatlariga, xonaning maqsadiga va atrofmuhitning xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi. EXIT belgilari tashqi chiqishlarga o'rnatiladi. Yoritish kalitlar tomonidan boshqariladi. Harakat datchiklari bo'lgan lampalar koridorlarda, foyelarda va zinapoyalarda qo'llaniladi.

Odamlarni elektr toki urishidan himoya qilishning asosiy chorasi sifatida loyiha barcha elektr jihozlarini nolda tenglashtirishni nazarda tutadi. Elektr jihozlarining barcha metall

oqim o'tkazmaydigan qismlari yerga ulangan bo'lishi kerak.

Barcha montaj va qurilish ishlari KMK PUEga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Smeta bo'yicha elektr jihozlarining miqdori chizmalar bo'yicha spetsifikatsiyaga mos kelmaydi, ishchi loyihalar smeta bilan muvofiqlashtirilishi tavsiya etiladi.

Bosh rejada quvvat ulanish nuqtasi ko'rsatilinsin.

4.5. Loyihaviy yechimlarning qisqacha tavsifi.

Turar -joy binosi:

Sovuq va issiq suv ta'minoti :

Sovuq suv tarmoqlari $dn=20mm...110\text{ mm}$ gacha bo'lgan PN16 polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Issiq suv tarmoqlari $dn=25mm$ PN25 polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Issiq suv ta'minoti har bir xonadonda o'rnatilishi mo'ljallangan ikki konturli isitish qozoni orqali iste'molchiga yetkaziladi. Bino yerto'la qismida nasos qurilmalari uchun nasos xonasi ko'zda tutildi va xonada $Q=9,0m^3/soat$ $H=55m$, $N=3kVt$ (1-ishchi, 1-zaxira) nasoslar joylashtirilgan. Loyiha doirasida har bir xonadon uchun sovuq suv hisoblagichlar hamda suzgich (fil'tr) o'rnatish ishlari inobatga olingan.

Ichki oqova suv tarmoqlari:

San-texnik jixozlardan chiqayotgan oqova suvlar o'zi sizib chiqib, tashqi kanalizatsiya tarmoqlariga ulanadi. Oqova suv quvurlarini yotqizish $dn=50mm$, $dn=100mm$ bo'lgan plastmass kanalizatsiya quvurlaridan, yashirin tarzda amalga oshiriladi.

Qurilish inshootlaridan o'tish joylarida quvurlar temir yoki polietilen gilof bilan o'raladi. Quvurlar nishab bilan yotqizilgan. Kanalizatsiya ustunlarining shamollatish qismi tomdan $0,5m$ yuqoriga chiqarilgan. Maxsus chuqurchada suv ko'tarish darajasiga qarab ishlovchi drenaj nasos o'rnatiladi.

Sanitariya-texnik vositalari: san-yzellarda qo'l yuvish uskunalari (umival'nik), sochiq quritgich, unitaz, dush poddon va osh xonada idish yuvish qozonlari (moyka) mayishiy ehtiyojlar uchun joylashtirilgan.

Biznes markazi:

Sovuq va issiq suv ta'minoti : Sovuq suv tarmoqlari $dn=20mm...110\text{ mm}$ gacha bo'lgan PN16 polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Issiq suv tarmoqlari T3, T4 $dn=20mm...75mm$ PN25 polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Issiq suv ta'minoti bino tomida o'rnatilishi mo'ljallangan isitish qozoni orqali iste'molchiga yetkaziladi. Bino yerto'la qismida nasos qurilmalari uchun nasos xonasi ko'zda tutildi va xonada $Q=11,0m^3/soat$ $H=55m$, $N=2,2kVt$ (1-ishchi, 1-zaxira) nasoslar joylashtirilgan. Loyiha doirasida suv sarfini olib borish uchun sovuq suv hisoblagichlar hamda suzgich (fil'tr) o'rnatish ishlari inobatga olingan.

Ichki oqova suv tarmoqlari: San-texnik jixozlardan chiqayotgan oqova suvlar o'zi sizib chiqib, tashqi kanalizatsiya tarmoqlariga ulanadi. Oqova suv quvurlarini yotqizish $dn=50mm$, $dn=100mm$, $dn=150mm$, bo'lgan plastmass kanalizatsiya quvurlaridan, yashirin tarzda amalga oshiriladi. Qurilish inshootlaridan o'tish joylarida quvurlar temir yoki polietilen gilof bilan o'raladi. Quvurlar nishab bilan yotqizilgan. Kanalizatsiya ustunlarining shamollatish qismi tomdan $0,5m$ yuqoriga chiqarilgan. Maxsus chuqurchada suv ko'tarish darajasiga qarab ishlovchi drenaj nasos o'rnatiladi.

Sanitariya-texnik vositalari: san-yzellarda qo'l yuvish uskunalari (umival'nik), unitazlar, vanna, gigienik dush Bide va osh xonada idish yuvish qozonlari (moyka) mayishiy ehtiyojlar uchun joylashtirilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. "Hududgaz Poytaxt" GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2023-yil 27-iyuldagi №029697-sonli texnik sharti.

5.2. "HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ "O'zenergoinspeksiya"ning Elektr qurilmalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha 2023-yil 24-oktyabrdagi №410-sonli bayonnomasi.

5.3. "O'ZSUVTA'MINOT" AJ "Toshkent shahar suv ta'minoti" MCHJning 2022-yil 13-iyundagi №270-1592-sonli texnik sharti.

5.4. Loyiha bo'yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **90 706 651 835** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

2 123 389 345 so'mga kamaytirilib, **88 583 262 490** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **76 883 647 120** so'm

Asbob-uskunalar: **2 208 551 532** so'm

QQS: **9 491 063 838** so'm

6.1. Smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Obektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim etilgan. Ob'ektning boshlang'ich umumiy qiymati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 11.06.2003-yildagi №261-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Qurilayotgan (ta'mirlanayotgan) ob'ektning boshlang'ich umumiy qiymatini aniqlash tartibi" bo'yicha va O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tasdiqlangan SHNK 4.01.16-09 va 30.07.2009- yildagi №83-buyrug'i asosida ob'ektning umumiy qiymati aniqlangan.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022-yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertizadan o'tkaziladi.

6.3. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi" DM majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

6.4. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba'lar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.6. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatlarining haqqoniyligi, sifati va ishonchligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan Toshkent shahar Yakkasaroy tumani "Abdulla Qaxxor" ko'chasi 44-uy manzilda joylashgan "YAKKASAROY EMPIRES BUILDING" MCHJga tegishli mavjud yuridik hujjatga ega binosini "Yerto'la qismida avtoturargox bo'lgan biznes markaz, mehmonxona va ko'p qavatli turar joy" binolariga ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish obyektining loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Otajonov Mansurjon Ma'rufjon O'g'li.

Ishtirokchi ekspertlar: Djabbarova Lenura Appazovna, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Niyazov Alisher Maxmudovich, Yo'ldoshaliyev Jahongir Dilshod O'g'li, Abdullayev Shavkat Rahmatulla O'g'li, Djurayev Sherali Axmatjanovich